

**Abdujalil
RAZZAQOV**

***OLAM HAQIDA
XUSUSIY FALSAFA***



ABDUJALIL RAZZAQOV

***OLAM HAQIDA XUSUSIY
FALSAFA***

yoki, olam haqida zamonaviy ta'limotning tanqidiy tahlili

(Ilmiy-ommabop maqolalar to'plami)

Namangan nashriyoti

2019-yil

UO`K:821-512-133-9

KBK:84(5O`zb)7

R – 14

Bizni o`rab turgan olam haqida juda ko`p gapirilsada va kitoblarda yozilsada, haligacha unga jo`yali ta`rif berilmagan.

(muallif)

Абдужалил Раззақовнинг ушбу китобида олам, ҳаёт, фалсафа каби тушунчаларга янгича ва ўзгача талқин берилган. Албатта, бу – бугунги кунда янгилик ва шу билан бирга айнан юқоридаги тушунчаларнинг талқини дейилса, муболага бўлмайди.

Муаллиф фикрларини баён этишда кўп йиллик ҳаётий, илмий тажриба, кузатиши ва хулосаларига асосланган. Айниқса, фалсафий қарашларга янгича ёндошуви, шахсий фикр-мулоҳазаларининг бўртиб туриши, муаоммоли масалаларни муҳокамага қўйиши ва ечимни топишга интилиши муаллифнинг изланувчанлигидан, янгиликка интилишидан далолатдир.

Қ. Ҳолиқов,

фалсафа фанлари доктори.

ISBN: 978-9943-5645-5-8

© ABDUJALIL RAZZAQOV

© "Namangan" nashriyoti

241488

I. MUQADDIMA

1. Xususiy falsafa nimani anglatadi?

Biz ushbu tushunchaga quyidagicha ta'rif berdik:

Xususiy falsafa – har bir insonning o'zi haqida va o'zi yashab turgan muhit – olam haqidagi butun hayoti davomida to'plagan tasavvurlar yig'indisini tafakkur qilish hosilasidir.

Boshqacha aytganda, har bir insonning o'z hayoti davomida to'plangan bilim (axborot)lari asosida o'zi chiqargan mantiqiy xulosalarni xususiy falsafa deyish mumkin.

Tasavvurlar har bir insonning uni o'rab turgan olam haqidagi shu inson bosh miyasida hosil bo'lgan mavhum timsollar yig'indisidir.

Timsollar – butun olam va uning tarkibiy qismlari haqidagi inson tana a'zolari orqali ilg'ab olinishi mumkin bo'lgan belgilar (qiyofalar).

Tafakkur – insonlar miyasida shakllangan tasavvurlar asosida mantiqiy xulosalar chiqara olish qobiliyatidir.

Mantiqiy fikrlash – bir xil mavzuga oid bir necha axborotlarni solishtirgan holda ular ichidan eng to'g'risini tanlay bilishdir.

Aytish kerakki, xususiy falsafa atamasi va u bilan bog'liq sanab o'tilgan tushunchalar ta'rifi mavjud ilmiy manbaalarda uchramaydi va biz uni birinchi bo'lib talqin etmoqdamiz.

Biz hami, olamni bilish bo'yicha mavjud hayotiy va ilmiy muammolar haqida o'zimizning xulosalarimizni, ularning yechimiga oid o'z qarashlarimiz va takliflarimizni (xususiy falsafamizni) baholiqudrat jamlab, ularni omma ixtiyoriga oshkora taqdim etishni maqsad qilganmiz. Sizning ixtiyoringizga taqdim qilingan ushbu kitob aynan shu maqsadni ko'zda tutgan holda dunyoga keldi.

2. Falsafa haqida falsafa.

Manbaalarda “Falsafa” tushunchasiga **yanglish ta’rif** berilgan:

“Falsafa – bu borliqni o’rganish uchun umumiy metodlar tizimini yaratishdir.”? deb.

Bizning nazarimizda falsafa so’zi ostida uchta – mohiyatan bir xil, ammo qamrov darajasi turlicha qismlardan iborat sohani farqlash lozim:

- Xususiy falsafa;
- Umumiy falsafa;
- Falsafachilik.

Yuqorida manbaalardan olingan ta’rif aynan falsafaga emas, balki, ilm-fanning “falsafa fani”ga taalluqli bo’lib, u ilm – fanning **falsafachilik** sohasiga mos keladi. Falsafachilik bilan o’zini falsafa fani ta’limini takomillashtirishga, faylasuflar ilmiy meroslarini o’rganishga, falsafadan ilmiy izlanishlar bo’yicha olimlar ishini yengillatishga (faylasuflarni tayyorlashga) qaratilgan usullarni ishlab chiqishga bag’ishlagan olimlar guruhi shug’ullanadilar. Ular falsafa fanlari doktori, akademik yoki fan nomzodi bo’lsalarda, o’zlari faylasuf bo’lmashliklari ham mumkin. Bunday olimlarni ko’proq ta’limga ixtisoslashgan oliygozlarda va boshqa ta’lim muassasalarida uchratish mumkin.

Umumiy falsafa bilan barcha sohalarda xizmat qiluvchi tajribali mutaxassislar, rahbar xodimlar, ish boshqaruvchilar va boshqa o’z mehnati fidoyilari shug’ullanadilar. Ular o’zlari tanlagan yo’nalishlar bo’yicha, o’zlari va boshqalar xususiy falsafalarini umumlashtirish orqali ko’pchilik uchun foydali yangi mantiqiy xulosalarni chiqara olish qobiliyatiga u yoki bu darajada ega bo’ladilar. Ular olim yoki olimlikka da’vogar bo’lmashliklari ham mumkin, ammo, o’z sohasining yaxshigina faylasufi bo’lishlari hech gap emas.

Umuman olganda, **falsafa** olamni insonlarga tanituvchi fan. U boshqa barcha fanlarning oliy bosqichi, yakunlovchisi, ta’bir joiz bo’lsa barcha fanlarning “qaymog’i”. ya’ni – fanlar fanidir. **Umumiy falsafani faylasuflar yaratadilar.**

3. Umumiy falsafa haqida.

Bizningcha, *Umumiy falsafa turli xususiy falsafalar ichidan ko'pchilik ma'qullagan bilimlar jamlanmasidir.*

Vaholanki, biz yashayotgan olamdan boshqa olamni bilmas ekanmiz, "hayot" degan ajoyib hodisa ham yolg'iz bizga – yerliklarga nasib etgan ekan, tirik mavjudotlar ichida eng mukammali ham biz odamlar ekanmiz, deyarli barcha insonlar yakkayu – yolg'iz Xudoga ishonar ekanlar, shunga yarasha ularning falsafasi ham umumiy bo'lishi shart.

Insoniyatning kelajakda ham davomli yashab qolishi yo'lida, va – ehtimolki, butun tiriklikning saqlanib qolishi yo'lida eng katta xavf, eng katta muammo olamni bilishning yagona umumiy falsafasi shakllanmaganligidadir.

Umumiy falsafa fani boshqa barcha fanlarning natijalariga tayangan holda, rivojlanishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilab berishi, tarixan yo'l qo'yilgan kamchilik va xatolarga o'sha zamon va hozirgi zamon nuqtai nazaridan to'g'ri baho berishi zarur.

Umumiy falsafa fani faqat umuminsoniy qadriyatlar tarafida turishi, siyosat va guruhbozliklar qurboniga aylanmasligi lozim. Falsafa kelajakda ham yerdagi hayotni yanada rivoj topdirishga, ta'bir joiz bo'lsa uni betalofot saqlab qolishga insoniyatga ko'makdosh bo'lishi shart.

Umumiy falsafaga yuklatilgan vazifaning yana bir murakkab tomoni shundaki, u ilm-fanning boshqa tarmoqlarida yo'l qo'yilgan xatoliklardan tashqari, o'zida avvallari yo'l qo'ygan xatolarni ham sababini aniqlab, tushuntirib berishi va uning salbiy oqibatlarini bartaraf qilish yo'llarini ko'rsatishi kerak.

Umumiy falsafani o'rganish olam to'g'risidagi ma'lumotlarni va ta'limotlarni o'rganishdan boshlanadi.

II. OLAM HAQIDA ZAMONAVIY TA'LIMOT

Falsafaga, fizikaga va boshqa tabiiy fanlarga oid adabiyotlar va darsliklar bilan tanishib chiqib(ular ro'yxati ilova qilingan), ulardan joy olgan Olam haqidagi falsafaga oid muhim ma'lumotlarni tahlil qilish uchun qisqa satrlarda ko'chirib oldik. Ularni quyida keltirmoqdamiz.

1. "Olam" tushunchasi. Olamni anglash.

Biz *Olam* degan so'zning ma'nosini tushuntira oladigan lug'atni uchratmadik. Ammo, uning qo'llanish sohalariga qarab baho berish mumkinki, u "*hamma narsa*", "*juda ko'p*", "*hadsiz – chegarasiz*" kabi tushunchalarga yaqin ma'noni bildirishini, qandaydir umumiylikni ta'kidlab turganini sezish mumkin.

Zamonaviy ta'limotlarda, sifatiga, soniga, qamrov darajasiga(ko'lamiga), mazmun-mohiyatiga qarab Olam tushunchasi juda ko'p turlarga, ko'rinishlarga, shakllarga ajratilgan holda o'rganiladi. Shuningdek, Olam tushunchasining "*dunyo*", "*tabiat*", "*jahon*", "*ummon*" kabi bir qancha ma'nodosh(sinonim) "*adashlari*" borki, ularni qo'llaganda ham qaysidir ma'noda Olamni nazarda tutiladi. Bunday misollarni quyida ham uchratsa bo'ladi.

Olamni tushunish, tanish va unda ro'y beradigan jarayonlarni anglash insoniyat paydo bo'lgandan beri uning oldidagi eng dolzarb, eng muhim vazifa bo'lib kelgan. Bu sohada hozirgacha to'plangan bilimlar juda ko'p. Ularni o'rganish bilan falsafaning **ontologiya** bo'limi shug'ullanadi. Ular ichida bir-birini inkor etuvchi, ziddiyatlarga boy qarashlar(bilimlar, nazariyalar) ham talaygina. Bundan "Olam" tushunchasi ham istisno emas.

2. "Substantsiya" tushunchasi qanday tushuncha?

Olam so'zi juda ko'p hollarda, turli yo'nalishlarda qo'llaniladi. Har bir olam tushunchasi ostida boshqalardan bir yoki birnecha belgisi asosida umumlashtirilgan narsalar nazarda tutiladi. Ana shu umumlashtirishga asos bo'lgan belgi (narsaning xususiyati) fan tilida "substantsiya" deyiladi.

Manbaalarda ta'kidlanishich, "Substantsiya" so'zi lotincha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosiga ko'ra o'zbek tilidagi "mohiyat" so'ziga mos keladi.

3. Olam so'zining amalda qo'llanishi. Olamning turlari.

Olam so'zining qo'llanishi bo'yicha manbaalarga murojaat qilamiz. Ularda Olam tushunchasiga berilgan ko'plab **ta'riflarni** uchratish mumkin:

- Olam insonlarni o'rab turgan dunyo haqida keng qamrovli tushuncha;
- U nisbiy mohiyatga ega. Shuning uchun ham uning shakli xilma-xil;
- Faqat moddiy jismlarni qamrab oluvchi Olam – Moddiy Olam deyiladi;
- Odamning ruhiy dunyosini qamrab oluvchi olam – ma'naviy Olam deyiladi;
- Shuningdek, Olamning dolzarb, potentsial, virtual, konkret, abstrakt turlari va boshqa o'nlab turli-tuman nomdagi Olamlar sanab o'tiladi;
- Shu dunyo o'zining barcha murakkabligi va muammolari, jozibadorligi, butun go'zalligi bilan yagona Olamni tashkil etadi;
- Olam tushunchasi makonni aks ettiradi;
- Olam uni tashkil etuvchi narsalar bilan birgalikda namoyon bo'ladi; Hech narsasi yo'q olam yo'q. Yo'q degan so'z mavhum tushincha(abstrakt)

Dunyo(arabcha), Tabiat va Jahon tushunchalari ham Olam so'zining sinonim -(ma'nodosh)laridir.

Yana manbaalardan misollar keltiramiz:

- Nimaiki mavjud bo'lsa, ularning hammasi birgalikda siz bilan biz bilgan dunyoni ifodalaydi;
- Dunyo - insonlarni o'rab olgan moddiy va ma'naviy borliqni ifodalaydi;

- Dunyo - kosmik fazodagi materiyaning hamma ko'rinishi;
- Dunyo - koinot, yulduzlar olami, yer shari, yer yuzi, insoniy jamiyat, tuzum;
- Dunyo - borliqning biron belgisi asosida birlashgan bo'lagi;
- Dunyo - butun olam, butun jahon;
- Dunyo - kishining ichki ruhiy holati.

Endi, tabiat to'g'risida manbaalardagi fikrlarni ko'rib chiqaylik:

- Sifatiy jihatdan materiya moddiy va nomoddiy ko'rinishda bo'ladi;
- Materiyaning moddiy qismi modda va antimoddaga ajratilgan;
- Nomoddiy materiya maydon va nurlanish kabi ko'rinishlari mavjud deb hisoblanadi.

Tabiatning borlig'i darajalari:

- Biz odatlangan kattaliklarga mos o'lchovdagi dunyo, undan kichigi mikro-dunyo, kattasi esa, megadunyoni tashkil qiladi;
- Borliq ob'ektlar miqyosiga ko'ra har biriga mos keluvchi kuchlar yordamida muvozanatda bo'ladi:
 - **Mikrodunyo;** kuchli va kuchsiz yadroviy kuchlar ta'sirida bo'ladi;
 - **Makrodunyo;** elektromagnit kuchlari ta'sirida boshqariladi;
 - **Megadunyo;** gravitatsiya kuchlari hukmron.
- Borliqlarni sifatiy tuzilishi bo'yicha: **anorganik(jonsiz tabiat) dunyo, organik(jonli tabiat) dunyo** va **ijtimoiy dunyolarga ajratiladi.**

4. Borliq falsafasi.

Olam haqida gap ketganda beixtiyor **borliq** so'zini ham uchratishga to'g'ri keladi: u bazi joyda olam so'zi bilan bir manoda ishlatilsa, boshqa joyda o'zi mustaqil tushuncha sifatida uchraydi.

Manbaalarda takidlanishicha **hozirgacha faylasuflar borliq so'ziga hammani ham birday qoniqtira oladigan o'ziga munosib ta'rifni topa olmaganlar**. Shuningdek, fanda borliqning aksi – kushandasi: yo'qlik haqida ham arzirli munosib izoh yo'q.

5. Borliq haqida kontseptsiyalar.

Manbaalarda bunday kontseptsiyalar talaygina:

- Borliq ob'yektiv reallikni qamrab oluvchi tushuncha. Fikr, inson tafakkuri, o'y-xayollarimiz o'zicha mustaqil borliq emas, balki, ularning hosilasidir;
- Borliq bu moddiylikdir, ya'ni materiyaning o'zidir;
- Borliq – yo'qlikdan yo'qlikkacha mavjudlikdir;
- **Zardushtiylikda**: borliq quyosh va olovning hosilasidir;
- **Suqrot**: borliq – bilimdur. Biz borki – Olam bor;
- **Demokrit**: Borliq atomlar majmuasidan iborat. Borliqning mohiyati mavjudlikdir. Mavjud bo'lmagan narsa – yo'qlikdir;
- **Islom diniy ta'limoti**: Borliq ilohiy voqe'likdir;
- **Forobiy**: Ilk borliq Olohning o'zidir;
- **Beruniy**: Borliq shunday umumiylikki, u hamma narsaning asosida yotadi;
- **D.Berkli va b.**: Borliq sezgilarimiz majmuasidir;
- **Gegel**: Borliq mavhumlik, u mutloq ruhning namoyon bo'lishi;
- **Hozirgi falsafa darsliklari**: Borliq o'ziga ob'yektiv va sub'yektiv reallikni, mavjud bo'lgan va mavjud bo'ladigan olamlarni, moddiylik va ma'naviylikni, o'tmish va kelajakni, o'lim va hayotni, ruh va jismni qamrab oluvchi umumiy tusunchadir. Atrofimizdagi odam, olam, tabiat, jamiyat, tafakkur, g'oyalar, o'y xayollarimiz barchasi birday mavjuddir va turli shakldagi borliq tushunchasiga kiradi;
- Borliq nafaqat ob'yektiv reallikni, balki sub'yektiv reallikni ham qamrab oladi;
- **Materialistik qarash**: Borliqqa faqat ob'yektiv real olam, ongdan tashqaridagi, unga bog'liq bo'lmagan va jismoniy

mohiyatga ega bo'lgan narsalargina kiritilgan. Borliqning ideal, virtual, potentsial, abstrakt, ma'naviy shakllari bu ta'rifdan tashqarida qoladilar;

- Borliq reallik va mavjudlikdan kengroq tushuncha. Mavjudlik borliqning hozirgi paytda namoyon bo'lib turgan qismi bo'lib. o'tgan va mavjud bo'ladigan narsa va hodisalar ham borliqqa kiradi. Reallik esa, mavjudlikning hammaga ayon bo'lgan, ular tomonidan tan olingan qismi.
- Ananaviy falsafiy qarashlarda borliq uchta sohaga ajratib ko'rsatiladi: **tabiat borlig'i, jamiyat borlig'i, ong borlig'i**. Ularning umumiy belgisi (substantsiyasi) ularning mavjudligidir;
- Tabiat borlig'i ikkiga ajratiladi: tabiiy tabiat borlig'i, odam mehnati bilan ishlab chiqarilgan narsalar("ikkinchi tabiat", ya'ni madaniyat);
- Ikkinchi tabiat borlig'i: inson borlig'i, ma'naviy borliq, sotsial borliq;
- Inson borlig'i: insonning narsalar olamidagi borlig'i va odamning o'ziga xos bo'lgan insoniy borliq;
- Ma'naviy borliq: individuallashtirilgan va ob'yektivlashtirilgan ma'naviy borliq;
- Sotsial borliq: ayrim odamlarning tarixiy jarayondagi borlig'i va jamiyat borlig'i(ijtimoiy borliq).

6. Moddiy Borliqning shakllari.

Mavjud ta'limotlarda keltirilishicha:

- Borliqning moddiy shakli materiya o'ziga barcha jismlarni, hodisalarni, jarayonlarni va ularning xususiyatlarini qamrab oladi. Bundan tashqari, u tafakkurni ham, olamda mavjud barcha aloqadorliklarni va munosabatlarni qamrab oluvchi tushuncha;
- Materiya moddiy ob'yektlarga xos eng umumiy tushuncha:

- Tom ma’nodagi materiya faqat fikrning maxsuli va abstraktsiyadir;
- Borliqning moddiy shakliga xos umumiylikni axtarishning bir necha usullari qo‘llanilgan. Ular: moddiy olamning asosida yotuvchi mohiyatni-substantsiyani axtarish, moddiy olamning asosiy tarkibiga kiruvchi eng kichik qurilish materiali – substratni axtarish, hamma narsani vujudga keltiruvchi bosh sababni axtarishdir;
- Ilm – fanda nisbiylik nazariyasining paydo bo‘lishi bilan, materiyaning nomoddiy shakllari va antimoddalar haqidagi tushunchalar ta’limotlardan joy oldi.

7. Borliqning atributlari(ajralmas xususiyatlari).

Mavjud ta’limotlarga ko‘ra, Ob‘yektiv reallik, materialistlarning fikricha, inson sezgilariga bog‘liq bo‘lmagan holda, undan tashqarida mavjud bo‘lgan voqelikdir. Borliqning ob‘yektiv reallik ekanini ularning atributlaridan bilsa bo‘ladi. Muayyan jismning shu jism ekanligini belgilovchi xususiyatlari uning atributlari deyiladi.

Borliqning ham birnecha atributlari mavjud. Ular: *harakat, fazo, vaqt, in‘ikos, ong va boshqalar.*

8. Harakat va uning shakllari.

- Borliqning atributlari ichida uning mavjudlik xususiyatini ifoda etuvchi xususiyati harakat hisoblanadi;
- Harakat umuman har qanday o‘zgarishdir;
- Har qanday harakatning manbai shu sistemadagi ichki o‘zaro ta’sirlardir;
- Falsafadagi hozirgi ta’limotda harakat deganda nafaqat oddiy mexanik siljishni, balki olamdagi ijtimoiy harakatgacha bo‘lgan barcha o‘zgarishlarni harakat deb biladilar;
- Mexanik, kimyoviy, fizik, ijtimoiy va boshqa harakat turi mavjud deb hisoblanadi. Bu o‘zgarishlarning barchasi uchun

umumiy hisoblangan fazoviy siljishlar ularning barchasida u yoki bu darajada uchrashi mumkin;

- Harakatning fazoviy siljishdan boshqa yana rivojlanish, o‘zgarish, ta’sirlashuv kabi ko‘rinishlari bor deb e’tirof etiladi;
- **Harakat shakllarini** turkumlashda quyidagi mulohazalarga tayanib ish ko‘riladi:
 - Harakat shakllari bir-biri bilan sifat jihatdan farq qilib, ularning har biri materiyaning tashkiliy tuzilishi darajalarining muayyan bosqichida namoyon bo‘ladi;
 - Materiyaning harakat shakllari bir-biri bilan genetik jihatdan hamda kelib chiqishi jihatdan ketma-ket bog‘langan, ya’ni, harakatning murakkabroq shakllari uning soddaroq shaklidan kelib chiqqandir;
 - Harakatning yuqori shakllari tarkibidagi quyi shakllari uning yuqori shakllariga ham mansubdir, ammo harakatning yuqori shakli uning quyi shakliga mansub emas;
 - Sanab o‘tilgan mulohazalar asosida harakatning beshta shaklini ajratib o‘rganiladi: mexanik, fizik, kimyoviy, biologik va ijtimoiy harakat;

Harakatning yana ko‘plab turkumlarga ajratilgani ma’lum.

9. Fazo va Vaqt falsafasi.

- Ushbu tushunchalar falsafada ko‘pincha egizaklarday yonma-yon o‘rganiladi. Ularni **borliqning yashash shakli deyiladi**;
- Fazo narsalarning ko‘lamini, hajmini, o‘zaro joylashuv tartibini yoki uzluksizligini ifodalaydi;
- Vaqt muayyan lahzadagi fazoning muayyan nuqtasida hodisalarning ketma-ketligini, jarayonlarning davomiyligini ifodalaydi;
- Fazo va vaqt tushunchasi ko‘pincha falsafadagi makon va zamon ko‘rinishida yoziladi: fazo – narsalar joylashadigan

- bo'sh quti, vaqt esa, hodisalar bo'lib o'tadigan muddat ma'nosida ishlatiladi;
- Fazo va vaqt miqdoriy va sifatiy jihatlarni ifodalashiga qarab, metrik va topologik xususiyatlarga ega. Ularning metrik xususiyatlari – ko'lam, bir jinslilik, izotropik kabilar kirsra, topologik xususiyatlarga – uzluksizlik, bog'langanlik, bir o'lchamlilik, orqaga qaytmaslik kabi xususiyatlar kiradi;
 - Fazo va vaqtni tushunish bo'yicha **ikki xil yondoshuv** mavjud:
 - **Substantsional yondoshuv:** ular xususiyatlari qat'iy o'zgarmas;
 - **Relyativistik yondoshuv:** ular o'lchamlari tezliklariga bog'liq ravishda o'zgaradi deb hisoblanadi.

10. Haqiqat ham borliqmi?

Falsafaga oid adabiyotlarning ayrimlarida Haqiqat tushunchasini borliqlar qatorida sanab o'tilgan. Haqiqat nima? U haqda falsafiy ta'limot qanday?

Yana manbaalarga murojaat qilaylik:

- Haqiqat – bu inson bilimlarida borliqni to'g'ri in'ikos etish, narsa va hodisalarni asli qanday bo'lsa, ularni inson miyasida xuddi shunday aks etishi;
- Inson o'zining bilish jarayonida kashf etgan tabiat va jamiyat qonunlari haqiqatdir;
- Haqiqat ob'yektivdir. U ob'yektiv voqelikni aks ettiradi;
- Tabiat va jamiyat qonunlari ham ob'yektivdir. Bu qonunlar inson ongiga bog'liq bo'lmagan holda, undan tashqarida mavjud bo'lgan ichki zarurat, muhim bog'langanliklarni ifodalaydi. Bu qonunlarni inson bekor qilolmaydi va o'z ixtiyori bilan o'zgartira olmaydi;
- Insonning borliqni bilishdan maqsadi haqiqatni bilishdir;
- Nisbiy haqiqat – insonlarning borliqdagi narsa va hoqisalar to'g'risidagi taxminlaridir;

- Mutlaq haqiqat – borliqdagi narsa va hodisalar haqidagi bir tomonlama to‘liq, aniq, mukammal, kelgusida tuzatilmaydigan, to‘ldirilmaydigan bilimdir;
- Haqiqat - aniq bilimlardir;
- O‘tmishda va hozirda bilish jarayonidagi nisbiy va mutlaq haqiqatlar dialektikasini to‘g‘ri tushunmaslik, haqiqatning aniqligini hisobga olmaslik bilish nazariyasi sohasida ikkita yanglish qarashga, ya‘ni dogmatizm va relyativizmga olib keldi;
- Dogmatizm mavjud bilimlarning haqiqatligiga shubha bilan qarash;
- Tadqiqot ob‘yekti va asosga ega bo‘lmagan har qanday bilim – dogmatizmdir;
- Relyativizm inson bilishida hosil bo‘lgan bilimlarning nisbiy tomonlarini mutlaqlashtirib, inson bilimlari faqat nisbiy haqiqatlardan iborat deb bilishdir. Ular mutlaq haqiqatni butunlay inkor etishadi;
- Spinoza: inson bilimlarining voqelikka mos kelishi haqiqatdir;
- Haqiqat – bilimlarning foydaliligi;
- Haqiqat amaliyot orqali anglanadi;
- Haqiqat qandaydir qotib qolgan narsa emas, u doimo o‘zgarib, boyib, rivojlanib boradi;
- Haqiqat hamisha sub‘yektivdir; chunki u inson va insoniyatdan tashqarida bo‘la olmaydi;
- Haqiqat ob‘yektiv;
- Haqiqat – konkret tushuncha, mavhum haqiqat yo‘q;
- Haqiqat o‘z borlig‘iga ega;
- Haqiqat yashirin hodisa;
- Haqiqat teologik ma‘noda “haq”qa – xudoga yetishish ma‘nosida ishlatiladi;
- Haqiqat so‘zi o‘zbek tilidagi “to‘g‘ri” so‘zi bilan uzviy bog‘liq;
- Haqiqat sinflarga bog‘liq emas;

- Haqiqatning predmetli, fizik, biologik, kontseptual, operatsional, ob'yektiv, sub'yektiv va boshqa o'nlab turlari haqida manbaalarda keltiriladi;
- Bilish, uning natijasi – haqiqat.

Shunday qilib, biz Olam haqidagi zamonaviy ta'limotlarni o'rganib chiqdik. Olam va uning xususiyatlarga oid diqqatga sazovor fikrlarni, ma'lumotlarni, ta'riflashlarni ko'chirib olib, ushbuga ilova ham qilmoqdamiz. Ularni iloji boricha bilimlar bisoti sifatida qadrlab, yig'ib-terib, ular ustidan tanqidiy tahlil qilishga harakat qildik. Ammo, kuzatuvlarimiz va tahlillarimiz natijasida, Olam falsafasi haqida, ayniqsa falsafaning Ontologiya qismi haqida, bizda yaxshi taassurot qoldirmadi. **Olam haqidagi ma'lumotlar omboriga nazar solinsa, obrazli qilib aytganda xuddi "tul xotinning bisot sandig'i"ni eslatadi: u yerda go'yoki hamma narsa bor, ammo ular ichidan zarur kelganda keraklisini topish qiyin.** Bundan tashqari, tanqid qilishga loyiq kamchiliklar juda ko'p.

III. OLAM HAQIDA ZAMONAVIY TA'LIMOTNI TANQID

Bundan avvalgi II bo'limda keltirilgan Olam falsafasi bilan bog'liq yig'ma ma'lumotlarni tahlil qilib, ular yuzasidan bizda paydo bo'lgan tanqidiy mulohazalarni quyida bayon qilish bilan birga, ushbu masalalarning hal qilish yo'llari haqida xususiy falsafamizni ham taqdim qilmoqdamiz.

1. Olam falsafasiga oid.

Olam tushunchasining mohiyatiga mutlaqo mos kelmaydigan yoki to'la ifodalamaydigan ta'riflashlar anchagina. Ayrim ta'riflarda Olamning yakkayu-yagonaligi e'tirof etilsada, unga haqiqatga to'g'ri keladigan birorta ham hammabop ta'rif uchramaydi. Berilgan ta'riflar Olamning mohiyatini to'la va to'g'ri ifodalamaydi;

Dunyo, Tabiat, Jahon kabi Olam so'zining ma'nodosh(sinonim) "adashlari" ham ko'p qollaniladi. Eng yomoni, ularni ba'zida aralashtirib bir ma'noda ishlatilsa, boshqa payt alohida ma'noda ishlatiladi. Shuningdek, almashtirib yoki adashtirib ishlatilgan hollari talaygina;

Olam va Borliq tushunchalari ham asossiz ravishda aralashtirib, almashtirib yoki adashtirib qo'llaniladi;

Bizning fikrimizcha, Olamning yagona ta'rifi bo'lishi shart. U ilmiy jamoatchiliklar tomonidan vaqti-vaqti bilan muhokama qilib turilishi va kerak bo'lsa o'zgartirib to'g'rilab borilishi lozim.

Dunyo, tabiat, jahon kabi so'zlar va atamalarni falsafada Olam so'zining o'rnida qo'llashdan tiyilish kerak: ularni og'zaki va badiiy janrlarga qoldirgan afzal.

Olam va Borliq tushunchalarini bir ma'noda ishlatish noo'rin. Ularning bir-biriga bo'ysinuvchi turli xil tushunchalar ekanligini unutmashlik kerak.

Olamning, Borliqning va boshqa ularning adashlarini izohlashda juda murakkab va asoslanmagan, chigal hamda xato, ko'pincha keraksiz turkumlashlarga, tabaqalashlarga yo'l qo'yilgan.

Falsafada Olam, Borliq kabi tayanch tushunchalarning asoslanmagan turkumlanishiga va tabaqalanishiga yo'l qo'yish ularni tushunish va bilish jarayonini qiyinlashtirib, ilmda ham turli chalkashliklarning tug'ilishiga olib keladi.

Bizning fikrimizcha, turkumlarga ajratayotganda Olamning birorta ham sherigi yoki adashi yo'qligini, ya'ni u turkumlarga ajralmasligini. uning tarkibiga kiruvchi Borliqlarning soni esa, to'rttadan oshmasligini unutmash kerak. *Eng asosiysi, ushbu turkumlashlar ta'limotlarni soddalashtirishga xizmat qilishi kerak.*

Olam tushunchasi bilan bog'liq: Borliq, Reallik, Mavjudlik, Dunyo, Tabiat, Tabiiylik, Jahon, Harakat, Materiya, Fazo, Vaqt, Haqiqat kabi falsafaning ontologiya bo'limida qo'llaniladigan o'ta muhim tayanch iboralar va tushunchalar borki, ularga tegishli substantsiyasini aniqlab, qo'llash chegarasini aniq belgilanmagan;

Falsafaning Ontologiya bo'limida qo'llanadigan barcha tayanch iboralarni(ular barmoq bilan sanarli) aniqlab, ularning har birining o'ziga xos belgilarini(atributlarini) aniqlashtirgan holda kichik bir lugatga jamlab, qo'llanish chegarasini ham aniqlashtirish kerak. Vaqti- vaqti bilan ushu luga'ni ham ilmiy kengashlardan o'tkazib, yangilab turilishi kerak.

Olam va u bilan bog'liq tayanch tushunchalariga substantsion va relyativistik qarashlarni aralash qo'llab xatoga yo'l qo'yilgan;

Olam va Borliq tushunchasiga bir yo'la Substantsion va Relyativistik nuqtai nazardan qarashga barham berish kerak: *ilmda ulardan birini tanlashning vaqti keldi.* Nisbiylik nazariyasini yaratilish jarayonida yo'l qo'yilgan va biz aniqlagan xatoliklar bizning bu taxlit xulosaga kelishimizga asos bo'lgan. (ushbu masala yuzasidan bizning maqolalarimiz O'R F akademiyasiga havola qilingan).



Aytish kerakki, bizning taqdim qilinayotgan Olam haqidagi falsafamiz boshdan oxirigacha faqat substantsion nuqtai nazardan bajarilgan.

2. Borliq falsafasiga oid.

Zamonaviy ta'limotlarda ta'kidlanishicha, **Borliq ob'yektiv reallikni qamrab oluvchi tushuncha.** Fikr, inson tafakkuri, o'y-xayollarimiz o'zicha mustaqil borliq emas, balki ularning hosilasidir, - **degan sog'lom fikrlar bilan bir qatorda,** borliq materiyaning o'zidir, borliq yo'qlikdan yo'qlikkacha mavjudlikdir degan, **avvalgisiga qarama-qarshi yoki ziddiyatli hamda noaniq fikrlar ham o'rin olgan;**

Biz ushbu ziddiyatni bartaraf qilish yo'llarini qidirib, Borliq tushunchasini mavjud ta'limotlarda hamda falsafada qo'llanish sohalarini organib chiqdik va quyidagi xulosalarga keldik:

- Amalda qo'llanib kelingan Borliq tushunchasini turli xususiyatlarga ega bo'lgan "Borliq" va "Borlik" tushunchalari bilan almashtirish maqsadga muvofiq, deb hisobladik. Ularning biriga "Borliq" atamasini qoldirdik, ikkinchisini esa, "Borlik" deb atadik. Ular haqida batafsil IY bo'limda tanishish mumkin.

Qadimgi faylasuflar ham borliq haqida turlicha fikr bildirganlar. Ularning ichida davr sinovlaridan o'taolmagan va haqiqatdan uzoqlari ham, to'g'risi ham uchrab turadi. Ular ichidan eng to'g'ri fikrni, bizning nazarimizda, buyuk bobokalonimiz **Beruniy** aytgan: ***Borliq shunday umumiylikki, u hamma narsaning asosida yotadi;***

Borliq to'g'risida falsafada uch xil – diniy, idealistik, materialistik qarashlar mavjud bo'lib, shunga yarasha ta'limotlar ham uch xil bo'lishi va ular aralastirilmaligi kerak. Bunday holat olimlarni qanoatlantirsada, talabalar uchun qator qiyinchilik va tushunmovchiliklarni tug'dirishi aniq:

Olam va Borliq tushunchalariga falsafada uch xil yo'nalishdagi bir-biriga zid qarashlar shakllangan bo'lib, ularning qo'llanish chegaralari aniq ajratilmagan:

- **Diniy** qarash: Borliq – ilohiy voqe'lik;
- **Idealistik** qarash: Borliq – bilimdur;
- **Materialistik** qarash: Olam – faqat moddiylikdan iborat;

Ushbu uchchala ta'limotlarni taftish qilib, davr sinovlaridan o'tolmagan eski g'oyalarni chiqarib tashlab, darsliklarni ulardan tozalash kerak.

Falsafada, Borliqlar toifasiga olamdagi barcha "ko'zga ko'ringan" narsalarni tirkab, o'ta noaniq, g'ayri ilmiy ta'riflashga va shu asosida xilma-xil turkumlashlarga yo'l qo'yilgan. Xullas, ushbu ro'yxatga kiritilmagan narsaning o'zi qolmagan;

Borliqlarning ob'yektiv(haqqoniy) ekanligini ularning atributlaridan(ajralmas belgilaridan) bilsa bo'ladi deyilsada, **atributlar ro'yxatiga** fazo, vaqt kabi **Olam haqidagi tayanch va muhim tushunchalarni ham kiritib, ularning mavqe'ini pasaytirishga yo'l qo'yilgan.** Boshqa tomondan esa, in'ikos, ong kabi borliqligi mavhum tushunchalarni ham borliqlarning belgisi sifatida keltirib xato qilingan. Shu bilan birga, boshqa bir ta'rifda ong, bilim, in'ikos tushunchalarini borliqlar safiga to'g'ridan – to'g'ri kiritib qo'yaqolingan;

Borliqlar tushunchasiga to'g'ri ta'rif berish orqali, ushbu masala o'z-o'zidan yechiladi.

3. Materiya haqidagi falsafaga oid.

Materiya o'ziga barcha jismlarning, hodisalarning, jarayonlarning va ularning ayrim xususiyatlarini qamrab oladi, deb **amalda borliq bo'lmagan narsalarni borliqlar toifasiga kirgizib, xato qilingan;**

Tafakkurni, olamda mavjud barcha aloqadorliklarni, munosabatlarni ham materiya qatoriga qo'shib, xatoga yo'l qo'yilgan;

Tom ma'noda **materiya faqat fikrning maxsuli va abstraktsiyadir, deb mutlaqo mantiqsizlikka yo'l qo'yilgan;**

Materiyaning nomoddiy shakli mavjud deb, mantiqsizlikka yo'l qo'yilgan.

Materiya asli Moddiy Borliq. Mohiyatan uning tarkibida boshqa hech qanday nomoddiy narsalarning bo'lishi mumkin emas. Modomiki shunday narsa bo'lar ekan, demakki u materiya emas.

Tafakkur, ong, kuch maydonlari kabi tushunchalarni materiya toifasiga kiritish umuman mantiqsizlik. Voqea, hodisa, jarayonlarni hamku, asti qo'yavering. Xuddi shunday, yorug'lik kabi o'zi juda yaxshi ma'lum bo'lsada, moddiylikka xos inertsiya xususiyatini, yoki Borliqlarga xos xususiyatlarni namoyon qilmaydigan narsalar va tabiiy hodisalarni Materiya safiga kiritish umuman to'g'ri emas.

4. Fazo va Vaqt falsafasiga oid.

“Fazo” va “Vaqt”ni Borliq sifatida emas, balki borliqlarning yashash shakli, - deb qarab, xato mulohaza yuritilgan. Natijada ularning borliqlarga qay darajada mansubligi oydinlashmay qolib ketgan;

Bizning nazarimizda, *fazo* va *vaqt* tushunchalari Borliqlarning muhim ikki vakili, ularni boshqa vazifada ko'rish, ularga boshqacha xususiyatlarni tiqishtirish noto'g'ri natijalarga olib keladi.

“Fazo” va “Vaqt” tushunchalariga bir vaqtning o'zida ikki xil qarama-qarshi qarash mavjud:

- **Substantsion** qarash: bunda vaqt va fazo xususiyatlari absolyut(o'zgarmas) deb hisoblanadi;
- **Relyativistik** qarash: bunda vaqt va fazo xususiyatlari tezliklarga bog'liq ravishda o'zgaradi deb hisoblanadi.

Bu yerda xatolik shuki. **har ikki qarashni bir yo'la qo'llash albatta turli ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.** Shu sababli. insonlar ulardan birini tanlab foydalanishga majbur:

Fazo va Vaqt tushunchalariga relyativistik qarash asossiz ekanligini biz avvalroq taqdim etgan “Eynshteyn nisbiylik nazariyasini tanqid” nomli maqolalarimizda isbotlashga uringanmiz. Shunga ko‘ra, borliqlarning ushbu turiga ham faqat *substantsion* nuqtai nazardan qarash to‘g‘ri bo‘ladi, deb hisoblaymiz.

5. Haqiqat falsafasiga oid.

Haqiqat tushunchasi turli ma’nolarda ishlatilib kelinadi. Uni qo‘llash chegarasi bo‘yicha aniq va izchil fikrlar yo‘q. Haqiqat tushunchasini ayrim hollarda Borliqlar toifasiga kiritilgan bo‘lsada, unga ob‘yektiv tabiiy qonuniyatlardan tashqari, insonlar tomonidan to‘qib chiqarilgan sub‘yektiv qonuniyatlar va tushunchalarni ham “tiqishtirib” qo‘yishga urinishlar uchraydi;

Haqiqat so‘ziga uning mohiyatiga to‘g‘ri kelmaydigan “nisbiy” va “mutlaq”, “ob‘yektiv” va “sub‘yektiv” kabi old qo‘shimchalar qo‘llab, yoki, ularning qo‘llash sohasini belgilash yuzasidan bahs ochib, xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan;

Dogmatizm, realizm va relyativizm tushunchalarini qo‘llashda ham tushunmovchiliklar mavjud;

“Haqiqat” sub‘yektiv tushuncha, u hamisha rivojlanib, o‘zgarib boradi degan fikrlar bilan birga, shu yerning o‘zida “Haqiqat” – ob‘yektivdir, degan mutlaqo teskari fikrlarni ham o‘qish mumkin;

“Haqiqat”ni asoslashda dastavval sub‘yektiv xususiyatlarga urg‘u berib(masalan, uni bilim deb qarab), keyinchalik ushbu xato xulosalarga ob‘yektivlik niqobini kiygizishga urinishlar mavjud. (Bunday usuldan nisbiylik nazariyasida ham ko‘p uchratish mumkin);

Haqiqat degan so‘zning asl ma‘nosi “Ollahning aytgani” ma‘nosini anglatsada, uni o‘zbekcha talaffuzda ko‘chma ma‘noda *to‘g‘ri, xatosiz, kafolatli, ishonchli kabi tasdiqlovchi va ta‘kidlovchi iboralar qatorida ishlatib kelinadi.*

-Biz **Haqiqat** so‘zini yangi ma‘noda, ya‘ni, tabiiy qonuniyatlarni ixcham ifodalovchi atama o‘rnida ishlatish bu so‘zning ham, tabiiy

qonuniyatlarning ham mohiyatini buzmagani holda, ularni boʻrttirib, taʼkidlab koʻrsatishga xizmat qiladi deb hisobladik va qoʻlladik. Yangi atama tabiiy qonuniyatlarning oʻbyektiv, oʻzgarmas xususiyatlarga egaligini ham taʼkidlab turadi va ixcham, ravon talaffuz qilinadi. Bu haqda yana keyingi maqolada ham batafsil tanishtiriladi.

6. Harakat haqidagi falsafaga oid.

Harqanday harakatning manbai ichki oʻzaro tasirlar, - deb ichki kuchlarning muvozanati haqidagi qonunlarga, hamda energiyaning saqlanish qonuniga zid fikrlar bildirilgan;

Olamda roʻy beradigan **harakatlar turini** jismlarning toʻqnashuvi natijasi hisoblanmish **turli hodisa, voqea, jarayonlar hisobiga sunʼiy ravishda koʻpaytirishga yoʻl qoʻyilgan;**

Bizningcha, falsafada Borliqlarning ishtiroki bilan roʻy berishi mumkin boʻlgan birgina harakat turi mavjud: u jismlar(materiya)ning fazodagi siljishi(mexanik harakat). Olamda roʻy beradigan qolgan barcha boshqa harakatlar anashu siljishdan boshlanadi. ***Bizga ayon boʻlgan boshqa barcha harakatlar, qanday atalishidan va koʻrinishidan qatʼiy nazar, anashu moddiy borliqlarning harakatining yuqori darajadagi hosilalaridir.***

*Biz, ushbu boʻlimda qayd etilgan tanqidiy mulohazalardan kelib chiqqan holda, Olamning tuzilishi haqidagi oʻy fikrlarimizni “**Olam haqida bizning xususiy falsafa**” nomli maqolaga jamladik. Ushbu boʻlimda Olam haqidagi zamonaviy taʼlimotlarga nisbatan oʻzimiz aniqlagan kamchilik va xatolarni mazkur maqolada iloji boricha takrorlamaslikka astoydil harakat qildik. **Maqola keyingi IY boʻlimdan joy olgan.***

IV. OLAM HAQIDA BIZNING XUSUSIY FALSAFA.

1. Olamning ta'rifi.

Biz Olam tushunchasiga quyidagicha ta'rif berdik:

Inson va uni o'rab turgan butkul uzoq-yaqin borliqlar – Olamd.

2. Olamning asosiy xususiyatlari:

- *Olam yaxlitdur. U bepoyondir. U azaliy va abadiydir. U bizga, bizning bilimimizga bog'liq bo'lmagan holda mavjuddir;*
- *Olam yagonadir. Unga o'xshash yana boshqa bir Olam yo'q.* Ushbu so'zlarni inkor etuvchi birorta dalilni dunyo ilm fani hali qo'lga kiritgan emas.

3. Olamning tarkibi.

Bizning nazarimizda, *Olam, o'z navbatida faqat to'rt xil Borliqlardan tashkil topgan: Materiya, Makon, Zamon va Haqiqat.* Shulardan faqat bittasi: - *Materiya* - "Moddiy borliq", qolganlari: *Makon, Zamon va Haqiqatlar* - "Nomoddiy borliq" toifasiga kiritildi.

Bu yerdagi biz izohlagan Materiya, Makon va Zamon tushunchalari mavjud ta'limotlardagilar bilan deyarli mos keladi desak bo'laveradi. Ularni aslo ma'naviy borliqlar deb ham bo'lmaydi. Bizning tushunchamizda, ma'naviy borliq deganda, inson tomonidan o'ylab topilgan, ob'yektivligi aniq bo'lmagan soxta yoki sub'yektiv(inson tafakkuri bilan bog'liq) narsalar tushuniladi. Biz ta'riflagan Nomoddiy borliqlar to'laqaonli ob'yektivligi aniq bo'lgan borliqlardir.

Haqiqat atamasi esa, biz tomonimizdan birinchi bor borliq sifatida taklif etilayapti va u mavjud ta'limotlardagi tabiiy qonuniyatlar tushunchasiga mos keladi.

Shuningdek, manbaalarda uchraydigan *tabiat qonunlari* tushunchasi ham avvalgilari bilan bir mazmunda ishlatilsada, ularni *tabiiy qonuniyatlar* deyish shu borliqning (ya'ni Haqiqatning) mohiyatini to'laroq va to'g'riroq ifoda qilgan bo'lardi. Tabiiy qonuniyatlarga biz taklif qilgan Haqiqat atamasini qobul qilish-qilmaslik har bir ilmiy jamoatchilikning o'z xoxishi.

Har ehtimolga qarshi aytish lozimki, borliqlar haqida gap ketganda, biz o'z maqolalarimizda tabiiy qonuniyatlar o'rniga Haqiqat atamasini ishlatganmiz. Bu, bir tomondan ixcham talaffuzni ta'minlab qulaylik tug'dirsa, ikkinch tomondan Olamning muhim bir tarkibiy qismiga falsafiy tus berishga xizmat qiladi.

4. Olamning mavjudlik shartlari.

Olam xilma-xil va boy tarkibga ega bo'lsada, undagi kechadigan barcha hodisa va jarayonlar xuddi bir butun tanadagiday bir xil kechadi. *Bir butunlik (yaxlitlik) deganda shuni tushunish kerakki, tabiatdagi barcha voqea-hodisalar, Olamning qay nuqtasida ro'y bermasin, har doim birday amal qiluvchi tabiiy qonuniyatlar(Haqiqat) asosida batartib kechadi.* Boshqacha aytganda, Butun Olamda har qanday Materiyaning harakati bilan kechadigan barcha jarayonlar, voqea-hodisalar bir umumiy Makonda. Zamon(vaqt) o'tishi bilan, barcha uchun umumiy va o'zgarmas qonuniyatlar (Haqiqat) asosida ro'y beradi.

5. Falsafada “borliq” tushunchasi va uning ta'rifi.

“Borliq” so'zi lug'aviy manosiga ko'ra “mavjudlik” so'ziga yaqin tursa ham, uni falsafada har turli tushunchalarni ifodalashda turli ma'noda qo'llaniladi. *Biz bu yerda qo'llagan “borliq” tushunchasi falsafaga oid mavjud ta'limotlardagidan farq qiladi.* Shu sababli, biz o'zimiz qo'llagan “borliq” so'ziga o'zimiz ta'rif berdik. U quyidagicha ta'riflanadi:

B o r l i q deb, o'zi amalda mavjud va yaxshigina ma'lum bo'lsada, kelib chiqishi sabablari va tafsiloti noma'lum, buni aniqlash esa insoniyat imkon darajasidan tashqarida bo'lgan. o'zi yo'qdan bor

ho'lmaydigan, bordan yo'q bo'lmaydigan hamda o'ziga xos xususiyatlarini boshqalar bilan bo'lishmaydigan Olamning jami to'rt xil tarkibiy qismlariga aytiladi.

6. Borliqlarning asosiy xususiyatlari.

a) Barcha borliqlar uchun umumiy xususiyatlar:

- Olamning birligini, borligini va butunligini ta'minlovchi ushbu *to'rt xil borliqlardan tashqari, Olam tarkibiga olinadigan va qo'shiladigan boshqa hech narsa yo'q.* Shuningdek, ularning to'rttalovi bittadan xususiyatlari bilan o'zaro chambarchas bog'langan va har biri alohida olganda biron bir alohida mavqe'ga, imtiyozga ega emas. Ularni bir-biridan ajratgan holda bilishning ham, o'rganishning ham iloji yo'q;
- *To'rttala borliqning umumiy jihati shundaki, ularning hamkorligi tufayli Olamda h a r a k a t vujudga keladi. Har bir harakatda to'rttala borliq beistisno tariqasida bab – barobar qatnashadi.* Borliqlarning to'la tarkibi qatnashmagan harakatning o'zi bo'lishi mumkin emas (Zamonning kechishini hisobga olmaganda);
- *Harakat Butun Olamdagi barcha voqea-hodisalarning ilk manbai, jarayonlarning asosi.* Aynan harakat orqali to'rttala borliqni alohida – alohida o'rganish, ularni anglash va ulardan foydalanish mumkin. **Olam** turfa xil biri biridan mustaqil kechuvchi betartib hodisalar yig'indisi emas. U o'ta murakkab tuzilishga, xilma-xil qiyofaga ega hamda har-xil voqea – hodisalarga boy. Bularning barchasii **harakatning mavjudligi** tufaylidir;
- *Bu to'rt borliq shuning uchun "borliq"ki, ular hech qachon bordan yo'q bo'lmaydi, o'zicha ko'paymaydi va kamaymaydi, yo'qdan bor bo'lmaydi, bir-biriga aylanmaydi, o'zaro o'rin almashmaydi.* Ularning hech birining boshqasiga nisbatan ustunligi yo'q: harqaysi borliq Olamning mavjudligida o'z o'rniga va ahamiyatiga ega. Ular biri biriga ta'sir ko'rsata olmaydi. **Borliqlar hamda ularning xususiyatlari abadiydir;**

- Bu to'rttala borliq o'z xususiyatini har doim, har yerda birday namoyon qiladi. Borliqlarning bari zamonidan, joylashgan makonidan, miqdori va ko'lamidan qat'iy nazar. Olamning harqanday nuqtasida, harqanday vaziyatda o'z xususiyatlarini bir xil namoyon qiladilar: *borliqlarning tanlab ta'sir qilish xususiyati yo'q*;
- *Barcha Borliq turlari* o'zaro mutlaqo mustaqildurlar. Ammo, ularning hammasi bitta ajoyib hodisa – *Harakat tufayli bizning ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladilar*. Shu sababli, ushbu to'rttala borliq bir-biri bilan chambarchas bog'langan va alohida-alohida olganda o'z ahamiyatini mutlaqo yo'qotadi.

b) Borliqlarning har birining o'ziga xos xususiyatlari:

- *Makon.*

Biz *Makon* tushunchasiga quyidagicha ta'rif berdik:

Makon – butkul Moddiy borliqning joylashuvi va harakatlanishi uchun zaruriy va yetarli hisoblangan cheksiz – chegarasiz hudud – fazoviy bo'shliqdir.

Makonning ham o'ziga xos xususiyatlari talaygina:

- Makonning asosiy xususiyati – *uning uch o'lchamli ko'laminin cheksiz-chegarasiz* kengligidir: uni uch o'lchamli fazo - deb ham ataydilar. Makonning bu xususiyatini o'rganish qulay bo'lishi uchun Dekart koordinatalar sistemasi degan o'lchov tizimi qobul qilingan;
- *Makon* o'z bag'ridan nafaqat *jismlarning harakati uchun zarur yo'lni ta'minlaydi*, balki qandaydir hajmni egallaydigan *jismlarni o'z bag'riga olib joy ham beradi*. Unda harqanday moddiylikka va harqanday harakatga joy topiladi. Shunga ko'ra, "makon taqchilligi" hech qachon ro'y bermaydi.

- Olamda mavjud bo'lgan hamma moddiy narsalar fazoda joylashgan. *Fazodan o'rin olmagan va fazodan tashqarida joylashgan bitta ham moddiy narsa yo'q va bo'lishi ham mumkin emas;*
- *Makon barcha joyda va hamma vaqt birday xususiyatlarni namoyon qiladi.* U ayrim harakatlarga yoki materiyaning bo'laklariga ataylab aks ta'sir ko'rsatmaydi;
- *Makon hech qachon harakatlanmaydi,* ko'chib joyini o'zgartirmaydi;
- *U hechqanday egriliklar, buralishlar, siyraklik va tig'izliklar kabi moddiyliklarga xos xususiyatlarga ega emas;*
- *Makonning barcha hududida* o'lchov birliklari bir xil o'zgarmas uzunlikka ega. *Masofa birligi, ya'ni o'lchovi, doimiy o'zgarmas* qiymatga ega: u hechqachon qisqarib yoki uzayib o'zgarishga uchramaydi;
- Makon to'g'risida gap ketganda, ko'pincha **fazo, fazoviy bo'shliq, koinot, samo, osmon, hajm, yuza, uzunlik(masofa). ichkari, tashqari, qa'ri, bag'ri, ko'lami, tevarak atrofi, yuzasi, tubi, markazi, o'rtasi, chekkasi kabi ko'plab** iboralarni qo'llaniladi. Ammo, ularning barchasi ham, makonni yoki uning ayrim xususiyatlarini anglatadi.

• *Zamon:*

Borliqning ushbu turiga biz quyidagicha *ta'rif* berdik:

Z a m o n - materiya harakatining(voqea-hodisa va jarayonlarning) ketma-ket va davomli kechishini ta'minlovchi omildir.

Odatda kitoblarda, ilmiy yozma manbaalarda va umuman kundalik turmushda *zamon* tushunchasidan ko'ra unga ma'nodosh bo'lgan *vaqt* tushunchasi ko'p ishlatiladi va buz bunga odatlanib qolganmiz. *Zamon* tushunchasini asosan falsafaga oid adabiyotlarda ko'rish mumkin. Aslida. *Zamon* va *Vaqt* tushunchasi bir-birini takrorlovchi tushunchalarni? Ya'ni. ularning umumiylik darajasi qanday?

Agar ularning faqat *harakat*dagi ishtirokini hisobga olinsa. ularning bir qism umumiyligini kuzatish mumkin: ularning har ikkisi

harakat haqida gap ketganda qo'llanadi va bir xil o'lchov birliklarida o'chanadi. Ularning umumiylik darajasi shu bilan tugaydi.

Zamon va vaqt tushunchalari orasidagi tafovut nimada?:

- **Zamon** tushunchasi insonlardan, ularning bilimidan qat'iy nazar mavjud bo'lgan *tabiiy tushuncha*. **Vaqt** esa, insonlar tomonidan Zamoni hamda uning xususiyatlaridan vujudga keladigan oqibatlarini o'rganish uchun o'ylab topilgan *o'lik*(harakatsiz) *sun'iy tushunchadir* ;
- **Zamon bir maromda uzluksiz kechadigan, orqaga qaytmaydigan, takrorlanmaydigan, o'zgartirib bo'lmaydigan, yo'qolmaydigan, tugamaydigan, doimo yangilanib turadigan, to'xtab qolmaydigan, sekinlashib yoki tezlashib ketmaydigan "jonli" tushuncha**. Uning na boshlanishi va na oxiri ma'lum. **Vaqt** esa, uni o'ylab topgan insonlar qo'lidagi xoxishga ko'ra har kudozga solsa bo'ladigan, insonlarning xoxishi, yoki o'zaro kelishuvi asosida amalda qo'llaniladigan *harakatsiz(o'lik) tushunchadir*. Vaqt o'lchovlari ham boshqa o'lchovlar kabi harakatlarni solishtirib aniqlanadigan *nisbiy qobul qilingan birliklar hisoblanadilar*;
- **Zamon** harakatning paydo bo'lishida doimo qatnashadi. **Vaqt** esa, asosan Zamon xususiyatlarini va harakatni o'rganishda foydalaniladigan bir vosita. Vaqt tushunchasi hali insonlar ongida shakllanib ulgurmagan davrlarda ham Zamon hozirgiday kechavergan;
- Qo'llanish sohasi bo'yicha ham Zamon va Vaqt bir-biridan farq qiladi: Zamon tushunchasi asosan falsafada qo'llanilsa, Vaqt asosan tabiiy fanlarda hisob-kitob ishlarida. shuningdek, kundalik turmushimizda keng qo'llaniladi;
- **Zamon materiya va makon ishtirokisiz** ro'y beradigan *noinertsial harakatning yagona turidir*. U mutlaqo tekin jarayondir;

- Turli "vaqt mashinalari" , vaqtning o'zgaruvchanligi haqidagi xilma- xil nazariyalar hamda tajriba va kuzatuvlarning natijalari noto'g'ri hisob – kitoblardagi xatoliklar hamda mantiqsiz mulohazalarning hosilasidir.

Aytilganlardan xulosa qilinadigan bo'lsa, *Zamon va Vaqt tushunchalari aslida bir-birini absolyut takrorlovchi tushunchalar, - deb bo'lmaydi.* Ayniqsa harakat bilan bog'liq hisob-kitoblarda ularni almashtirib qo'llash ma'lum darajada xatoliklarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Shuningdek, keltirilgan vaqt tushunchalarining borliqlarga nisbat berib aytilgan birorta xususiyatlariga zid bo'lsa, unday tushunchalarni Zamon tarkibiga kiritib bo'lmaydi.

Zamon tarkibiga kiritilgan vaqtlar qanchalik xilma-xil atalmasin, ularga nisbatan qo'llaniladigan asosiy o'lchov birliklari o'zgarmas va u xalqaro standartga ega. Unga muvofiq, vaqtlarni baholashda asosiy o'lchov birliklari bizga kundalik turmushimizdan ayon bo'lgan o'sha sekund, minut va soatlardir. Ularni qayd etish uchun maxsus vaqt o'lchagichlar - xilma-xil soatlar va o'lchash usullari o'ylab topilib, amalda joriy qilingan. Bu aytilganlar deyarli barchaga ma'lum narsalar bo'lgani uchun, ular haqida batafsil to'xtalib o'tishga hojat qoldirmaydi.

Bundan tashqari, kun,tun, sutka(kecha-kunduz), oy(o'rtacha 30 kun), yil(365 kun), asr(yuz yil), davr, zamon, umr, muddat, fursat, kabi xilma-xil vaqt o'lchovlari birliklari ham qo'llaniladi.

Bu yerda keltirilgan va vaqtning ilgari uchramagan xususiyatlari yuzasidan bildirilgan fikrlar ushbu maqola muallifiga tegishli va boshqa manbaalarda uchramaydi.

• Haqiqat.

Biz mavjud ta'limotlardagi " tabiiy qonuniyatlar" tushunchasini Olam tarkibiga kiruvchi Borliqlar qatoriga qo'shdik va uni "Haqiqat" atamasi bilan atadik hamda unga quyidagicha ta'rif berdik:

H a q i q a t shu olamda ro'y beradigan barcha voqea, hodisa va jarayonlarni tartibga soluvchi o'zgarmas tabiiy qonuniyatlar yig'indisidir.

Olamning mavjudligi, tuzilishi, borliqlarga xos xususiyatlari ham shu **Haqiqat** asosida ro'y beradi. Haqiqatning o'ziga xos xususiyatlari:

- **Haqiqat o'Ichovsiz tushuncha** bo'lib, uni olamda kechadigan jarayonlarga, voqea - hodisalarga ko'rsatgan tasirini o'rganish va kuzatish orqali bilib, mantiqiy fikrlash yo'li bilan idrok etish mumkin. Makon va Zamonning mavjudligi har bir inson uchun ochiq-oydin ma'lum va ravshan bo'lsada, ulardan farqli o'laroq, Haqiqat qonunlari juda ko'p va xilma-xil. Ammo ular hammaga ham o'zini osonlikcha oshkor etavermaydi. Uni bilishga intilgan insongina jarayonlarni kuzatish va shu asosida mantiqiy xulosalar chiqarish orqali bunday imkoniyatga ega bo'lishi mumkin. Yer yuzidagi har bir inson deyarli butun umrini anashu haqiqat qonunlarini o'zlari uchun kashf qilishga sarflaydilar. Odatda buni bilishga intilish deyiladi.
- **U barcha tabiiy qonuniyatlarni qamrab olgan nomoddiy borliqdir.** Har bir vaziyatning o'ziga xos qonuniyatlari mavjud. Shu qonuniyatlar tufayli haqiqat Olamning tuzilishida hamda harakatning paydo bo'lishida bevosita qatnashuvchi hisoblanadi;
- **Haqiqat qonuniyatlari sabab Olamda harakatlar batartib kechadi, hodisalarda meyor hadlari mujassam. Haqiqat hech qachon o'z xususiyatini o'zgartirmaydi;**
- Moddiy va nomoddiy borliqlarning mavjudligi, ularning har birining o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qilishi, borliqlarning o'zaro munosabati natijasida paydo bo'ladigan harakatlar ham, va - nihoyat, tabiatning ajoyib hodisasi bo'lmish hayotiy jarayonlar ham - Haqiqat nizomlari asosida ro'y beradi. **Haqiqatsiz hech bir hodisa ro'y bermaydi;**
- **Haqiqat nizomlari azaliy, abadiy va o'zgarmas,** ularga tuzatish kiritishning, ulardan qochib aylanib o'tishning mutlaqo iloji yo'q;
- **Haqiqat nizomlari odatda biz insonlardan yashirin.** Shunday bo'lsada, insonlar o'z hayotiy tajribalari, maxsus kuzatuvlari va urinishlari orqali ularning ayrimlarinigina bilib olishlari va ulardan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishlari yoki bunday imkoniyatdan

o'z ixtiyorlari bilan voz kechishlari ham mumkin. Vaholanki, shu narsaning o'zi ham haqiqat nizomlaridan tashqari narsa emas: buning uchun insonga aql-farosat va erkin fikr yuritish imkoniyati ato etilgan;

- Haqiqat qonuniyatlari o'xshash vaziyatlar(shart-sharoitlar, tarkiblar va hokazo) uchun hamisha bir xil mazmunga ega. Boshqacha aytganda, **bir xil vaziyatlarning qonuniyatlari ham bir xil bo'ladi** hamda bu haqiqatning asosiy printsiplaridan biri hisoblanadi va insonlarda mantiqiy fikrlashga asos bo'lib xizmat qiladi.

- **Moddiy borliq(materiya):**

Bizdagi Moddiy borliq tushunchasi fan tilidagi materiya tushunchasiga deyarli mos keladi. Ammo, mavjud darsliklarda materiyaga oid keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'limotlarda moddiylik shubhali ko'ringan ayrim narsalar ham materiya tarkibiga kiritilib kelingan. Ushbu masalada biz taklif etayapgan Moddiy borliq tushunchasi bilan darsliklardagi Materiya tushunchasi o'rtasida tafovutlar bor va ular haqida keyinroq mavridi kelganda yana to'xtalamiz.

Biz Moddiy borliqni quyidagicha ta'riflash maqsadga muvofiq degan xulosaga keldik:

Tinimsiz harakatda bo'ladigan va o'zaro to'qnashganda bir-biriga o'z massalariga va harakat tezligiga(harakat miqdoriga) mutanosib ravishda qarshilik ko'rsataolishga qodir barcha narsalar(borliqlar) Moddiy borliq yoki materiya deb ataladi.

Ushbu ta'rif materiyaning darsliklarda keltirilgan ta'riflarini inkor qilmagan holda, ulardan farqli o'laroq, uni boshqa nomoddiy borliqlardan farqlab turuvchi asosiy xossasi bo'lmish inertlilik xususiyatini ta'kidlab turadi. Shuningdek, materiyaning yana bir qator xususiyatlarini sanab o'tish mumkin:

- ***Materiya*** Olamning tanasini - skeletini tashkil etadi. – desak mubolag'a bo'lmaydi. Uning ***mavjudligi va salmoqliligi tufayli biz olamni ko'ramiz, sezamiz:***

- *U hamisha harakatda va bunda u o'zining alohida o'ziga xos xususiyatini – inertliligini namoyon qiladi.* O'zi to'xtovsiz harakatda bo'lsada, bu harakatni o'zgartirishga qaratilgan har qanday tashqi ta'sirga "jon-jahdi" bilan o'z massasiga hamda tezligiga (harakat miqdoriga) mutanosib ravishda qarshilik qilishga qodir;
- Materiyaning har bir bo'lagi bir vaqtning o'zida birnecha harakatda qatnashishi mumkin;
- *Materiyaning* moddiy asosi bir bo'lgan holda, u tarkiban katta – kichik juda ko'p alohidalangan bo'laklardan iborat va ularning *har biri o'zining massasiga va harakat tezligiga mos harakat miqdoriga ega bo'ladi;*
- Materiya bo'laklari harakatlanib o'zaro to'qnashganda o'z harakat miqdorini (massasi yoki harakat tezligini, yoki har ikkisini) o'zgartirishi mumkin. Bu shu alohida harakatlanuvchi bo'laklar massalarining qisman yoki tola qo'shilishi, massalarning sochilishi va to'zg'ishi natijasida maydaroq bo'laklarga ajralishi tufayli kamayishi, tezliklarning o'zgarishi bilan ro'y berishi mumkin;
- **Materiya** ko'rinma shaklini va hajmini o'zgartirishi va shunga yarasha turli xususiyatlarini namoyon qilsada, *harqanday holatda ham* u materiyaligicha qoladi, ya'ni *o'z inertliligini yo'qotmaydi va hechqachon borliqlarning boshqa turiga aylanmaydi.* Shuningdek, ayrim olimlar tomonidan *borliqqa tenglashtirilayotgan, energiya, kuch maydonlari kabi borliqligi betayin narsalarga aylanmaydi. Materiya bitta, uning xususiyatidan farq qiluvchi hechqanday adashi ham, turi ham yo'q.*

c) Borliqlarning harakat bilan bog'liq xususiyatlari:

- **Materiya** harakatda o'zining inertsiyasi tufayli qatnashadi va uni harakatning bosh ta'sischisi desa ham bo'ladi;
- **Makon** harakatda birgina xususiyati-masofani ta'minlashi bilan qatnashadi:

- **Zamon** Harakatda jarayonlarning kechishi uchun kerakli *muddat* bilan ta'minlashi orqali qatnashadi. Aytishadiku, vaqt o'tishi uchun ham vaqt kerak, - deb;
- **Haqiqat** nizomlari tufayli Olam tuzilishi mukammal va harakat batartib kechadi. Xullas,

Makon ko'chmas, Zamon to'xtamas, Haqiqat sinmas, Materiya tinmasdir.

d)Harakat ham borliqmi?

H a r a k a t borliqlar toifasiga kirmaydi. Ammo u sanab o'tilgan to'rttala borliqning hamkorlikdagi hosilasidir. U moddiy va nomoddiy borliqlarning birgalikda namoyon bo'lishidir.

Boshqacha aytganda, harakatning o'zi oqibatdir, sababi esa o'sha to'rt borliqning o'z xususiyatlarining amalda birvarakay namoyon bo'lishidir. Anashu birgina sabab tufayli, olamda barcha voqea-hodisalar, jarayonlar ro'y beradi, qolaversa eng ajoyib hodisa – hayot hamisha mavjud, bardavom va go'zaldir.

Harakatsiz hech bir hodisa, voqea sodir bo'lmaydi. Harakatsiz materiya bo'lmaydi. Aynan harakatni o'rganish orqali makonni ham, zamonni ham, haqiqat qonunlarini ham, materiyani ham bilish, o'rganish, idrok etish va baholash mumkin bo'ladi, hodisalarni tushunish mumkin.

Barcha voqea-hodisaning boshida va asosida o'sha harakat yotadi. *Harakat barcha voqea-hodisalarning bosh sababchisidir.*

Ilm-fanning barcha tarmoqlari olamda ro'y beradigan jarayonlarni, voqea-hodisalarni o'rganish bilan mashg'ul va shu yo'l bilan olamni keng ommaga tanitishga urinadi. Ushbu mashaqqatli yumushni bajarishga harqanday ilmiy muammolarning yechimi oxir-oqibat harakat bilan bog'liq bo'lib chiqadi. Shu sababga ko'ra, harakatni barcha ilmiy muammolar uchun eng asosiy, ya'ni bosh masala deb qarash to'g'ri bo'ladi.

Aytish lozimki, yuqorida, maqolaning ushbu bo‘limida keltirilganidek, Olamni bunday guruhlash, tabaqalash va ta’riflash orqali tushuntirish mavjud ilmiy adabiyot va darsliklarda uchramaydi, yoki ulardan sezilarli darajada farq qiladi.

IV BO‘LIMGA QO‘SHIMCHA IZOHLAR

1. Borliq va Borlik haqida.

Biz mavjud ta’limotlardagi “Borliq” atamasi bilan ataladigan borliqlarni ikki qismga ajratdik: birinchi qismi – bizning borliqlarga bergan ta’rifimizga javob beradigan borliqlar va biz eskicha nom bilan yana “Borliq” deb atadik. Ikkinchisi – o’sha ta’rifga to’g’ri kelmaydigan va borliq deb yangilish atab yurilgan qismi. Biz ularni “Borlik” deb atadik. Olam haqidagi falsafada, *Borliq* va *Borlik* tushunchalarini adashtirib yubormaslik muhim:

- **Borliq** – *doimiylik ifodasi. U mutlaq, azaliy va abadiy, o‘zgarmas mavjudlikdir.* Bunday ta’rifga faqat biz sanab o’tgan Olamning to’rtala tarkibiy qismlari: materiya, makon, zamon va haqiqatlarga munosib. Biz o‘z falsafamizni aynan shunday fikrlar asosida shakllantirganmiz;
- **Borlik** esa, bizning nazarimizda, “yo‘qlik”dan - “yo‘qlik”kacha *mavjudlikdir. U – vaqtinchalilik timsoli.* Borlikni hardamda va har qadamda topish yoki yo‘qotish hech gap emas;
- “Mavjudlik” – *borliq va borliklarning inson tanasi sezgi organlariga ularni ilg‘ab olish va tafakkur qilish uchun yetarli darajada davomli ta’sir etaolish xususiyatini namoyish qilishidir.*

Asli, *borliklar borliqlarning ikkilamchi, uchlamchi va undan yuqori darajadagi hosilalaridir.* Borliklar yo‘q bo‘lib qolishlari uchun, yo Borliq darajasigacha qaytishlari, yoki, Borlikning boshqa ko‘rinishiga(shakliga) aylanishlari lozim bo‘ladi. Yangi Borliklar, o‘z navbatida, Borliqlarning yangi hosilasi sifatida, yoki mavjud Borliklarning o‘zgarishi tufayli paydo bo‘lib turadilar.

Borliklarning bor yoki yo‘q bo‘lib qolishi nisbiy jarayondir: aslida ular o‘zgarishga uchraydilar xolos. *“Yo‘qlik” so‘zi faqat Borlikka nisbatan ishlatilib, uning kushandasi hisoblanadi. Borliqlar uchun esa, “yo‘qlik” tushunchasi ma’noga ega emas.*

Borliklar tarkibiga borliqlarning barcha ikkilamchi va undan yuqori hosilalari, harakat, voqea – hodisalar va boshqa boqe’liklar kiradi. Olam haqidagi mavjud ta’limotlarda aynan manashu ikki xil tushunchani farqlamaslik, turli ziddiyatlar va tushunmovchiliklarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Borliqlar tushunchasi haqida bundan avval keltirilgan fikrlarga quyidagi qo‘shimchalarni keltirmoqdamiz:

“Borliq” va “Borlik” tushunchalari asli bir narsaning ikki xil xususiyat namoyish qilishi natijasida paydo bo‘lgan, ularni falsafada farqlamaslik turli tushunmovchiliklarga olib keladi.

Biz yuqorida ta’kidlaganimizdek, **Borliq** – *doimiylik ifodasi. U mutlaq, azaliy va abadiy, o‘zgarmas mavjudlikdir.* Bunday ta’rifga faqat biz sanab o‘tgan Olamning to‘rtala tarkibiy qismlari: *materiya, makon, zamon va haqiqatlargina* munosib. Mavjud ta’limotlarda biz ifodalagan shaklda bo‘lmasa ham, Olamning tarkibi haqida ozmi-ko‘pmi ma’limotlar joy olgan va ularning aksariyati bizning fikrlarga mos keladi. Biz mavjud ta’limotlar bilan biz keltirgan dalillar o‘rtasidagi umumiylik va tafovutlarni yuqorida aniqlab bayon qilib berganmiz va ular haqida alohida fikrlarimizni ham bayon qilib, asoslab, berishga harakat qilganmiz. Ammo, *“Borlik”* tushunchasiga kelganda ushbu fikrlarni aytib bo‘lmaydi. Qolaversa, u haqida biz bildirgan fikrlar ham hali mukammal bo‘lmagan va to‘ldirishga, aniqlikka muhtojligi sezilib turardi.

Keltirilgan sabablarga ko‘ra, mavjud ta’limotlarda, *“Borlik”* tushunchasi haqida ma’lumotlar biz tasavvur qilgan shaklda uchramaydi. ushbuni to‘g‘ridan – to‘g‘ri ifodalovchi tushunchani topib bo‘lmagach, manbaalardan unga mazmunan va mohiyatan mos keladigan o‘xshash (sinonim) tushunchalarni izlashga kirishdik va ushbu unvonga falsafadagi “fakt” tushunchasi juda yaqin kelishini payqadik.

Xo‘sh, “fakt” tushunchasi nima va u haqida manbaalardan nimalarni topish mumkin?

- **“Fakt”** asli lotincha soʻz boʻlib, u “bajarilgan, amalga oshirilgan” – degan maʼnoni bildiradi; u ruscha manbaalarda ham “fakt” deb keltiriladi va oʻqiladi. Oʻzbekchada, falsafaga oid entsiklopediyalarda ushbu soʻzga oid maʼlumotlar ruscha manbaalardan oʻzgarishsiz koʻchirib keltirilsada, amalda ilmiy va badiiy adabiyotlarda deyarli foydalanilmaydi, ogʻzaki muloqotlarda esa, toʻlaligicha ruscha maʼnoda keltiriladi, eshitiladi va tushuniladi;
- Fakt soʻzi baʼzida “Haqiqat”, “voqea”, “natija” tushunchalarini ifodalash uchun sinonim sifatida ishlatiladi;
- Fakt, tʻoʻqib chiqarilgan(yolgʻon) fikrlarga qarshi oʻlaroq, u reallikni ifodalaydi;
- Fakt-abstraktlik(mavhumlik) va umumiylikka nisbatan aniqlikni ustun darajada aniklik bilan ifodalaydigan tushuncha;
- Mantiq fanida va fan metodologiyasida empirik bilimlarni aks ettiradi;
- Fakt empirik bilimlarning oʻziga xos shakli sifatida nazariya yoki gipotezaga qarshi qoʻyilishi mumkin;
- Falsafada “Faktulizm” va “teoretizm” degan yoʻnalishlar mavjud boʻlib, faktulizm yoʻnalishida faktning nazariyaga nisbatan mustaqilligini etirof etiladi, teoretizm esa, buning aksi.

Cheklilik va cheksizlik haqida.

Modomiki gap Olam haqida, xususan uning tarkibiy qismlari boʻlmish borliqlar va borliklar haqida ketar ekan, shu yerda ularning ajralmas xususiyatlari sanalmich **cheklilik va cheksizlik** haqida zamonaviy taʼlimotlardan olingan maʼlumotlarni oʻzgarishsiz keltirishni oʻrinli deb hisobladik. Ushbu masalada bizning fikrlar bayon qilinganidan farq qilishi mumkin.

Manbaalarda keltirilishicha, **cheklilik - fazo va vaqtda oʻz ibtidosi va intihosi aniq boʻlgan aniq chegarali obʼyektlar(narsa, jarayon, hodisa, holat, xususiyat)larni anglatadi. Cheklilik chegarasi, obʼyekt intihosini boshqa obʼyektdan ajratib turadi va ularni bir-biriga bogʻlaydi(yoki ajratadi) Cheklilik doim oʻzgarishda, harakatdadir.**

Cheksizlik – u dunyoning fazo va vaqtda benihoyaligini anglatadigan tushunchadir. Cheksizlik faqat nihoyasi boʻlmagan

miqdordan tarkib topadi. U xuddi ziddiyatdan bo'lganligi uchun ham fazo va vaqtda nihoyasiz rivojlanadigan jarayondir? Cheklilik va cheksizlik dialektik birlikdadir. Har qanday narsa va hodisalar cheklidir, chunki u boshqa predmet va hodisalardan mustaqil holda mavjud bo'lib, fazo va vaqtda ma'lum ko'lamni egallaydi. Binobarin, u o'zini o'rab olgan dunyo bilan tinimsiz aloqada bo'lganligi uchun cheksizdir. Shu sababli, har bir ob'jekt cheklilik va cheksizlik birligidan iborat. Fazo va vaqtda chekli bo'lgan muayyan ob'jekt boshqa ob'jektlar bilan turlicha bog'langan bo'lib, u materivaning ko'pdan – ko'p elementlarini o'z ichiga oladi. Har qanday Chekli narsa cheksizlikning yuz berish formasidir. Ilm fan chekli ob'jektlarni bilish orqali Cheksizliklarning sirlarini ochishga vaqinlashadi.[2]

Ceklilik va cheksizlik haqidagi manbaalardan olingan yuqoridagi ta'riflar mazmunining hammasiga ham munozarasiz, muhokamasiz qo'shilib bo'lavermaydi.

2. Inertsial va Noinertsial harakat haqida.

Inertsial harakat – bu moddiy borliqning fazoda ko'chishi bilan sodir bo'ladigan harakatdir.

Noinertsial harakat esa, *Nyuton inertsiya qonuniga bo'ysinmaydigan harakatdir.* Odatda bunday harakatda moddiy borliq qatnashmaydi yoki moddiy borliqning boshqa bir harakati tufayli sodir bo'ladigan inson miyasidagi soxta tasavvurlar hosilasidir. Masalan, vaqtning kechishi noinertsial harakat, yorug'likning harakati hamda tushda ro'y beradigan harakat – soxta tasavvurga misol bo'laoladi.

3. Olamning substantsiya(tub mohiyati)si.

Olam tushunchasining mohiyati ko'lamiga yarasha ko'p va xilmaxil. Shular ichidan “substantsiya” sifatida bittasini ajratib olish anchayin murakkab va mavjud ta'limotlarda hozirgacha hal qilinmay kelinayapgan masala.

Biz Olamning deyarli barcha muhim xususiyatlarini(mohiyatini) maqolamiz avvalida sanab o'tishga harakat qilganmiz. Agar Olam uchun substantsiyani ushbu ro'yxatdan izlanadigan bo'lsak, **bizningcha**, bunga

Olamning asosida sanab o'tilgan makon, zamon, materiya va haqiqat kabi borliqlar yotgani, ularning har qanday sharoitda ham o'zgarmas xususiyatlarga egaligi, borliqlarning azaliy va abadiyligi, mazkur borliqlarning harakatni tashkil qilishda bab-barobar qatnashishi kabi xususiyatlari Olam uchun substantsiya vazifasini o'tay oladi.

4. Olamning substrati.

Substrat so'zi odatda jismlarning barcha xususiyatlarini o'zida jo qilgan eng kichik zarrachasi(imoratning g'ishti bo'lgani kabi) tushuniladi. Mavjud ta'limotlardan ham olimlar tomonidan Olamning substratini izlaganliklari ma'lum.

Olam nafaqat jismlarga o'xshash qattiq tuzilmali materiyadan, balki boshqa nomoddiy borliqlardan ham tuzilganligi tufayli, uning substratini axtarish asli noto'g'ri. Shunday bo'lsada, materiyaning aniqlangan substratini qaysibir ma'noda Olamning substrati sifatida qaralsa ham to'g'ri bo'laveradi.

Ushbu masalada, mavzuni ortiqcha chuqurlashtirib murakkablashtirmaslik maqsadida aniq aytish mumkinki,

Yorug'(inson ko'ziga ko'rinadigan) dunyoning olimlarga ochiq – oydin ayon bo'lgan substrati – bu materiyaning atom tuzilishiga ega shaklidir.

Hozircha Olam uchun to'laqaonli "substrat" deyishga loyiq nomzod ayni shu atomlardir.

Atomlarning ichki tarkibi va xususiyatlari olimlar tomonidan mana birnecha yuz yilliklar davomida qattiq o'rganilayotgan bo'lsada, bu ishlar uzil-kesil hal qilingan deyishga hali erta: tajribalarda aniqlangan ma'lumotlar ziddiyatli va turli shubhalardan xoli emas.

Atomlarning o'zidan kichik zarrachalari har qanday sharoitda ham, insonlar ko'ziga ko'rinmaydi: chunki ular yorug'likni qaytarmaydi. Shuning uchun, materiyaning atomdan kichik barcha shaklini "qorong'u dunyo" yoki "qora materiya" deb atash o'rinli deb hisobladik.

Qorong'u dunyo mavjud ekan, tabiiyki, Olamning insonlardan yashirin sir-sinoatlari hali juda ko'p va ular haqida to'la bo'lmagan ma'lumotlarga suyanib, Olamning xususiyatlari haqida yangi bir jiddiy xulosalar qilish to'g'ri bo'lmaydi. Tajriba va kuzatuvlar natijalaridan bildirilgan fikrlar asosida to'qilgan nazariyalarni, aniq qonuniyatlar sifatida emas, balki vaqtinchalik ilmiy taxminlar darajasida qarash va bot-bot ularni ham tekshirib, aniqlik kiritib borish zamonaviy ilm-fan zimmasidagi asosiy mas'uliyatlardan biri bo'lib qolishi lozim.

5. Yana harakat haqida.

Birlamchi harakat tufayli, materiyaning substratidan turli shaklli va tarkibli ikkilamchi moddiy jismlar paydo bo'ladi.

Ikkilamchi harakat o'sha birlamchi harakatning vektorli yig'indisidan boshqa narsa emas. Birlamchi harakat ham, ikkilamchi harakat ham bir vaqtning o'zida, bir xil qonuniyatlar asosida ro'y beradigan bir xil harakat haqida inson miyasida hosil bo'lgan soxta tasavvurdan boshqa narsa emas. Boshqacha aytganda, har qanday yuqori tartibli harakat qandaydir quyi tartibli bir tomonga yo'nalgan harakatlarning vektorli natijasi, soxta tasavvurdan iboratdir. Buni podaning harakatiga o'xshatasa bo'ladi

6. Klassik falsafa borliq va borlik haqida.

Falsafaga oid bizga ma'lum bo'lgan manbaalarda Olamni Borliq va Borlik kabi toifalarga ajratib o'rganish haqida to'g'ridan – to'g'ri ma'lumotlar uchramaydi. Ammo, ayrim maqolalarda Borliqning boshqacha o'xshamagan xususiyatlari ham har zamonda uchrab turishi haqida "shama" qilib aytilgan ayrim fikrlar uchrab turadi. Eng asosiysi, ushbu muammolar ilmiy darajada ko'tarilib, muhokama qilinmay kelgani uchun, yechimini ham topmagan.

Biz o'z falsafamizda Olam tarkibiy qismlarini Borliq va Borliklar toifasiga ajratgan holda o'rganish orqali ushbu muammoni hal qilish yo'lini taklif qilmoqdamiz. Bizning aksiomatik usulda bajarilgan ushbu takliflarimiz ilgari biron bir yozma manbaalarda uchramagan va u o'z taxminlarimiz asosida yaratilgan. Shunday bo'lsa ham, aytilganlarga yana bir bora o'zimiz ishonch hosil qilish maqsadida, qo'limizdagi

manbaalardan mavzuga oid ma'lumotlarni takroran o'rganib ko'rdik. Natijada Olam va uning tarkibi haqida bu taxlit fikrlarni bildirgan yolg'iz biz emas ekanmiz: shunga o'xshash fikrlarni bundan ancha oldin, o'rta asrlarda yashab ijod qilgan qadimgi ajdodlarimiz ijodida ham mavjudligini o'zimizga aniqlab oldik.

Gap, Buyuk alloma va mashhur mutafakkir olim Abu Nasr Forobiy tomonidan ishlab chiqilgan va o'rta asrlarda Yaqin sharq va O'rta sharq falsafasida qo'llanilgan **“vujudi vojib”** va **“vujudi mumkin”** ta'limoti haqida ketmoqda. Ushbu ta'limotni peripatetik falsafa tarafdorlari Ibn Sino, Umar Hayyom, Ibn Rushd va boshqalar o'z falsafiy amaliyotlarida foydalanganlar va targ'ib qilganlar.

Ushbu ta'limotga ko'ra, Olam tarkibidagi butun Borliq mavjudotlar ikkiga ajratilgan:

- 1) **“Vujudi vojib”** - zaruriy mavjudlik;
- 2) **“vujudi mumkin”** - imkoniy mavjudlik.

(Bizning tushunishimizcha, “vujud” atamasi moddiylikka nisbatan qo'llanilsa, o'zbekchadagi “jism”, “tana” so'zlariga hamohang. Endi, ushbu iboradan umumlashtirib nomoddiy borliqlarga nisbatan ham qo'llaniladigan bo'lsa, falsafadagi “sub'yekt” tushunchasiga o'xshatsa bo'ladi).

Forobiyning ta'biricha, Vujudi vojib va Vujudi mavjud o'rtaida aloqalar tasodifiy emas, balki ular tabiiy va mantiqiy qonun-qoidalarga zid kelmaydigan muayyan tartibga bo'ysinadi.

Vujudu vojib yagona mohiyat sifatida o'zining va barcha boshqa narsalarning yaratilishi Birinchi Sababidir. U quyidagi o'ziga xos xususiyatlariga ega:

- U Birinchi Sabab sifatida o'zidan o'zga sababning hosilasi bo'lmaydi;
- U barcha narsalarni yaratadi (mavjudlik sababchisi hisoblanadi), lekin o'zi ular tomonidan yaralmaydi (demak, ko'paymaydi, ko'paytirilmaydi);

- Unda zotiga, bilimiga oid qusur, yetishmovchilik yoki noaniqlik hamda uni to'ldirishga biron-bir zarurat yo'q (o'zgarmaydi). Chunki u yetuklik va barkamollik timsolidir;
- U "hozir bunday, keyin esa butunlay boshqacha" bo'lishi mumkin emas. U mutlaq borliq va mutlaq donishmandlik timsolidir;
- Haqiqiy yaratuvchanlik funktsiyasi aynan Vujudi – vojibga xosdir. U doimiy yaratish bilan mashg'ul. Uning ba'zan yaratib, ba'zan bunday faoliyatdan chetda turishi Vujudi vojib mohiyatiga ziddir(u hamisha faol);
- Vujudi vojib tomonidan o'zga narsalarni yaratish uchun uning irodasi va istak-xoxishi tufayli emas. balki o'zigagina xos zarurat asosida batartib ro'y beradi (tabiiy qonuniyatlar asosida kechadi);

Forobiyning fikricha, Vujudi vojibdan farqli o'laroq. Vujudi mavjud o'zining mavjudligi uchun boshqa narsaga (sababga), ya'ni Vujudi vojibga muhtoj borliqdir. U qo'shimcha ravishda yana o'ziga xos quyidagi xususiyatlarga ega:

- Vujudi vojub va Vujudi mavjud o'rtasida Olamda "sabab –oqibat" munosabati hukmron. Lekin bu cheksiz emas: uning intihosi pirovard natijada Birinchi sabab – vujudi vojibga borib taqaladi;
- Vujudi vojub va Vujudi mavjud o'rtasida o'zaro sabab-oqibat munosabatiga vaqt me'yori va mezoni hal qiluvchi rol o'ynamaydi (vaqtga bog'liq emas);
- Bunda nafislik (mutanosiblik, simmetruklik) darajasi, martabasi muhimdir. Nafislik esa beqiyos va betakror tushuncha;
- Beruniy ta'biricha, Vujudi vojib 5 darajaga bo'linadi: aql, jon, shakl, materiya, osmon;
- Vujudi vojubning nafislik darajasini Vujudi mavjudning dag'al, moddiylashtirilgan jihat va xususiyatlari bilan taqqoslash o'rinsizdir;

Vujudi vojib va Vujudi mavjudlik abadiylikda bir-biridan farqlanmaydi. Chunki, sababsiz oqibat bo'lmaganiday. oqibatsiz sababning bo'lishi ham tabiat qonunlari va mantiqning asoslariga ziddir. Vujudi vojib va Vujudi mavjudlik o'zaro ota-ona va farzandlik munosabatlariga

o'xshaydi. Vijudi vojib abadiy bo'lgani uchun, Vujudi mavjud ham abadiydir. Manbaalarda bu tafakkurga yangicha yondoshuv sifatida talqin qilinadi[2].

Aytilganlarga biz qoshimcha qilishimiz mumkinki, Vujudi vojib va Vujudi mumkin o'rtasidagi munosabatlarni falsafadagi miqdor va sifat o'zgarishlariga o'xshatish mumkin: Borliqlar hodisalarning miqdor ko'rsatgichini belgilasa, Borlik sifatini belgilaydi. Miqdor o'zgarishi sifat o'zgarishiga olib kelishini shu tariqa tushuntirish mumkin.

Biz Vujudi vojib va Vujudi mumkin tushunchalari haqidagi bu yerda bayon qilingan ma'lumotlar bilan tanishib chiqib xulosaga keldikki, biz tayyorlab taqdim etgan va "Olam haqida xususiy falsafa" nomli maqolalarimizdan joy olgan Borliq va Borlik tushunchalarining aksariyat xususiyatlari Forobiy ta'rificha "Vujudi vojib" va "Vujudi mumkin" tushunchalariga berilgan xususiyatlari bilan haqiqatda hamohang. Ularning aynanligini qiyoslab o'rganish uchun Vujudi vojib tushunchasi o'rniga Borliq tushunchasini, Vujudi mavjud o'rniga Borlik atamasini o'rin almashtirib o'rganish kifoya. Natijada qiyoslanadigan tushunchalarning aynanligini yaqqol ko'rinishi mumkin.

Albatta, bu degani, bizning maqola Forobiy ta'limotini aynan takrorlaydi degani emas. Masalan, Forobiyda keltirilgan va Borliqlar uchun aytilgan umumiy xususiyatlari mos kelsada, unda Olamningg tort asosiy tarkibiy qismlarga egalig'i haqidagi biz keltirgan fikrlar haqida umuman so'z bormaydi. To'g'ri, Forobiy Olam borlig'ini jami 5 darajaga bo'lib, tabaqalashga harakat qilgan. Bizningcha bunday fikr bugungi bilimlarga mos kelmaydi.

Vujudi vojib va Vujudi mavjut o'rtasidagi sabab-oqibat xususiyatlari, ular o'zgarishining bir-biriga mosligi va mutanosibliigi, ularning tabiiy qonuniyatlarga va mantiqqa asoslanishi, biz taklif qilgan Borliq va Borlik munosabatiga to'la mos keladi.

Borliq va Borliklar xususiyatlariga ko'ra xuddi Vijudi bojib va Bujudi mumkin kabi bir tanganing ikki tarafi kabi xususiyatga ega va mohiyatan bir bo'lgan Borliqlardir. Uning bir tomoni barcha Borliqlarning muqim, o'zgarimas jihatlarini ifodalasa, ikkinchi tomoni Borliklarning o'zgaruvchanlik, vaqtinchalik jihatlarini ifodalaydi.

Borliqlarning to'rttala turi ham beistisno o'z Borliklariga ega. Masalan, Zamonning vaqt, muddat, fursat, yil, soat kabi ko'plab ko'rinishlari Borlik xususiyatlarini namoyon qiladilar.

Makonnig hajm, yuza, masofa kabi o'lchab aniqlasa bo'ladigan ko'rinishlari ham Borliklardir.

Xuddi shu tariqa, Materiya va Haqiqatlarning ham o'ziga xos Borliklarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Borliklar xususiyatlarini inson tana a'zolariga bevosita ta'sir qilishi imkoniyati mavjudligi tufayli, ularni insonlar hissiy bilish orqali o'rganib farqlay oladilar: ko'radilar, eshitadilar, to'qnashadilar va hokazo.

Ammo, Borliqlar Olamning substrati ko'rinishida eng mayda qismi bo'lgani, yorug'lik nurini qaytarmagani va insonlar hissiy organlariga oraliq vosita – Borliklar orqaligina ta'sir ko'rsatgani uchun, insonlar ularni ajratib ilg'ab olishga qodir emaslar: Ular Borliqlarning mavjudligini faqat taxmin qilishlari va mantiqiy xulasalar chiqarishlari orqali anglashlari mumkin xolos.

Yorug'lik inson sezgi organlari va Borliklar o'rtasidagi yagona aloqa vositasidir. Shu bilan birga, harakatdagi Borliklar haqida axborot yetkazuvchi yagona agentdir. Aynan yorug'lik tufayli biz odamlar ko'zga ko'rinadigan Borliklardan tashqari, ko'zga ko'rinmaydigan qorongu dunyo haqida ham ayrim ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Endi, Forobiy ta'limoti bilan tanishgandan so'ng, "Hayot haqida xususiy falsafa" maqolamizda Borliqlarni bilish haqida biz olg'a surgan falsafa Forobiydan ko'chirilgan emasmi? degan shubhali savol tug'ilishi mumkinmi? Bizningcha, bunday shubhaga bu yerda hechqanday asos yo'q. Ushbuga dalil sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- Biz o'z maqolalarimizni dastavval(2016 yilda) tugatguncha, Forobiyda ham biznikiga o'xshash fikrlar mavjudligini haqiqatda bilmagan edik;
- Qolaversa, Forobiy aniqlagan Vujudi vojib va Vujudi mumkin tushunchalarining ayrim xususiyatlarigina biz Borliq va Borliklarga nisbatan aniqlagan xususiyatlarga mos kelardi: Ayrim hollarda Borliqlarning xususiyatlarini aniqlashda printsipial mos kelmaydigan fikrlar ham uchrab turadi. Masalan, Olam tarkibini Forobiy jami 5 darajaga ajratib o'rganishni taklif qilgan holda, biz Olam tarkibini

to'rtta Borliqlar turidan iborat ekanligini isbotlashga uringanmiz. Olam tarkibi son jihatdan ham, mazmun jihatdan ham bir-biridan tubdan farq qiladi;

Nima bo'lganda ham, biz olg'u surgan falsafiy fikrlarning Forobiy kabi buyuk mutafakkir, sharqda Aristoteldan keyin "ikkinchi muallim" deb tanilgan faylasuf olimning Olam haqida yuritgan fikrlari bilan bizning bugungi kunda bildirgan falsafamizning qaysi bir jihati mos kelib qolganini his qilishning o'zi bizga "yettinchi osmonda parvoz qilganday" zavq bag'ishlaydi, qilayotgan ishlarimizning to'g'ri ekanligiga ishonchni yana bir bor orttiradi. Mutafakkir Olimimizning qachonlardir chala qoldirgan ilmiy ishlanmalaridan birini to'ldirishda qatnashishdek sharaflı ishga mansubligimni anglash chuqur faxr tuygusini baxsh etadi. Eng asosiysi esa, bizning mantiqiy fikrlashlar maxsuli bo'lgan aksiomatik taxminiy fikrlarimiz o'zining nazariy boshlang'ich asosiga ega bo'ladi.

V. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Л.Ф. Ильичев и др. Философский энциклопедический словарь. Москва, СЭ, 1983
2. Nazarov Q. va b. "Falsafa", Qomusiy lig'at. "Sharq", T., 2004.
3. Nazarov Q. va b. Falsafa asoslari., "O'zbekiston", T., 2005.
4. Mamatov N. Va b. Falsafa, o'quv qo'llanma, TMI, T., 2005.
5. Yusubov D,A. va b. Falsafa: Darslik. T., O'zR IIV akad., 2012.
6. Turdiyev N.Sh. "Fizika", Umumta'lim maktablarining 6 sinfi uchun darslik, -T., "Kartografiya", 2005
7. Shaxmayev N.M. va boshq., "Fizika", 8 sinf uchun darslik. – T., "Ijod uyi", 2004.
8. Буховцев Б.Б., «учебник по физики для 9 классов ср. школы». М., «Просвещение», 1980.
9. Мякищев Г. Я., Буховцев Б.Б., «учебник по физики для 10 классов ср. школы». М., «Просвещение», 1978.
10. G'aniyev A. G'. va boshq. "Fizika", Akademik litsey va kasb hunar kollejlari uchun darslik, II – qism, -T., "O'qituvchi", 2003
11. Тарасов Л.В. "Этот удивительный симметричный мир". Пособие для учащихся.М., «Просвещение». 1982.
12. Составитель: Лельевр А.В. "Эврика 88", - М., «Молодая Гвардия», 1988.
13. акад. Горячкин В.П., "Собрание сочинений", ВАСХИНИЛ, том 1. – М., «Колос», 1965.
14. Угаров В.А. "Специальная теория относительности". Учебная пособия для студентов педагогических ВУЗов, М., "Наука", 1977
15. Eynshteyn A. " О специальной теории относительности". М., " Госиздат". 1922
16. Eynshteyn A. "Собрание научных трудов. Том I. Работы по теории относительности. М., "Наука", 1965
17. Eynshteyn A. "Собрание научных трудов. Том II. Работы по теории относительности. М., "Наука", 1966

МУНДАРИЖА

I. MUQADDIMA	3
1. XUSUSIY FALSAFA NIMANI ANGLATADI?	3
2. FALSAFA HAQIDA FALSAFA.	4
3. UMUMIY FALSAFA HAQIDA.....	5
II. OLAM HAQIDA ZAMONAVIY TA'LIMOT	6
1. "OLAM" TUSHUNCHASI. OLAMNI ANGLASH.	6
2. "SUBSTANTSIYA" TUSHUNCHASI QANDAY TUSHUNCHA?.....	6
3. OLAM SO'ZINING AMALDA QO'LLANISHI. OLAMNING TURLARI.	7
4. BORLIQ FALSAFASI.	8
5. BORLIQ HAQIDA KONTSEPTSIYALAR.	9
6. MODDIY BORLIQNING SHAKLLARI.	10
7. BORLIQNING ATRIBUTLARI(AJRALMAS XUSUSIYATLARI).	11
8. HARAKAT VA UNING SHAKLLARI.	11
9. FAZO VA VAQT FALSAFASI.	12
10. HAQIQAT HAM BORLIQMI?.....	13
III. OLAM HAQIDA ZAMONAVIY TA'LIMOTNI TANQID	16
1. OLAM FALSAFASIGA OID.....	16
2. BORLIQ FALSAFASIGA OID.	18
3. MATERIYA HAQIDAGI FALSAFAGA OID.....	19
4. FAZO VA VAQT FALSAFASIGA OID.....	20
5. HAQIQAT FALSAFASIGA OID.	21
6. HARAKAT HAQIDAGI FALSAFAGA OID.....	22
IV. OLAM HAQIDA BIZNING XUSUSIY FALSAFA	23
1. OLAMNING TA'RIFI.	23
2. OLAMNING ASOSIY XUSUSIYATLARI:	23
3. OLAMNING TARKIBI.	23
4. OLAMNING MAVJUDLIK SHARTLARI.....	24
5. FALSAFADA "BORLIQ" TUSHUNCHASI VA UNING TA'RIFI.	24
6. BORLIQLARNING ASOSIY XUSUSIYATLARI.....	25

IV BO'LIMGA QO'SHIMCHA IZOHLAR	34
1. BORLIQ VA BORLIK HAQIDA.....	34
2. INERTSIAL VA NOINERTSIAL HARAKAT HAQIDA.	37
3. OLAMNING SUBSTANTSIYA(TUB MOHIYATI)SI.	37
4. OLAMNING SUBSTRATI.....	38
5. YANA HARAKAT HAQIDA.	39
6. KLASSIK FALSAFA BORLIQ VA BORLIK HAQIDA.	39
V. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:.....	45

Adabiy-ilmiy nashr

Abdualil RAZZAQOV

OLAM HAQIDA XUSUSIY FALSAFA

Muharrir: Alijon JO‘RAYEV
Texnik muharrir: Abdulaziz TOSHPO‘LATOV
Musahhih: Dilobar TO‘RABOYEVA

Terishga berildi 01.04.2019 yilda.
Bosishga ruxsat etildi 25.04.2019 yilda.
Bichimi 60x84 1/16, Hajmi 3 bosma taboq.
Adadi 70 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.



“NAMANGAN” NASHRIYOTI
Namangan shahri, Navoiy ko‘chasi, 36.
Nashriyot litsenziya raqami AI – 156
2009 yil 14 avgustda berilgan

"UAS" bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Namangan shahar, A.Navoiy ko‘cha, 72-uy.

Forobiy kabi buyuk olimning Olam haqida yuritgan fikrlari bilan bizning bugungi kunda bildirgan falsafamizning qaysi bir jihati mos kelib qolganini his qilishning o'zi bizga "yettinchi osmonda parvoz qilganday" zavq bag'ishlaydi, qilayotgan ishlarimizning to'g'ri ekanligiga ishonchni orttiradi. Mutafakkir Olimimizning qachonlardir chala qoldirgan ilmiy ishlanmalaridan birini to'ldirishda qatnashishdek sharaffi ishga mansubligimni anglash chuqur faxr tuygusini baxsh etadi. Eng asosiysi esa, bizning mantiqiy fikrlashlar maxsuli bo'lgan aksiomatik taxminiy fikrlarimiz o'zining nazariy boshlang'ich asosiga ega bo'ladi.

Muallif



ISBN 978-9943-5645-5-8



9 789943 564558